



# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

2(19)

2025





ISSN 2181-3787  
E-ISSN 2181-3795

**“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”**  
**xalqaro ilmiy-metodik jurnal**

**«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»**  
**международный научно-методический журнал**

**“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”**  
**international scientific-methodical journal**

**№2(19) 2025**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 -  
tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha  
dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan  
zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

## MUNDARIJA

**07.00.00 – TARIX ..... 7**

- To‘rayeva Guli Bahriddinovna.** Buxoroda suv ta‘minoti, hovuzlar va bog‘lar joylashuvi haqidagi ilmiy-tarixiy mulohazalar (O.A.Suxareva tadqiqotlari asosida) ..... 7
- Sadullayeva Vazira Ismatovna.** Buxoro amirligida ta‘lim tizimi masalalari..... 14
- Махмудова Нигора Баратовна.** Некоторые аспекты в деятельности полиции безопасности в Туркестанском крае по материалам ревизии сенатора К.К.Палена ..... 19

**FILOLOGIYA ..... 24**

- Saidova Nodira Mustakimovna.** “Armonga aylangan adabiy orzular”da “Avesto”ga doir tahlil va talqinlar..... 24
- Xalilova Ruxsora Raupovna.** Ma‘rifatparvarlarning qarashlarida nutq uslubi ..... 31

**PEDAGOGIKA..... 34**

- Yarashev Jo‘rabek To‘rayevich.** Musiqiy artterapeya vositasida talabalarning estetik madaniyatini takomillashtirish..... 34
- Nilufar Xushmatova.** Developing the professional competence of vocational education students based on innovative cooperation..... 38
- Sodikov Xabib Tolibovich.** Talabalarining korxonada ijtimoiy-amaliy tayyorgarligini shakllantirish usullari ..... 43
- Hakimova Nargiza Supxonovna.** Zamonaviy ta‘lim jarayonida “Lifelong learning” konsepsiyasi asosida bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy sifatlarini rivojlantirish..... 50
- Tog‘ayeva Umida Shavqi qizi.** “Ona tili o‘qitish metodikasi” modulini takomillashtirishda ilg‘or tajribalardan foydalanish..... 55
- Ramazonova Salomat Saidovna.** Bo‘lajak pedagoglarni nostandart yondashuv asosida ta‘limda yangi mazmun, shakl va metodlarni ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirish ..... 62
- Qurbonova Nigina Boboxo‘jayevna.** Sadridin Ayniyning asarlarida qiz bolalarning o‘qitilishi va ularning jamiyatdagi o‘rni ..... 67
- Saidmuratova Malohat Baxtiyarovna.** O‘quvchilarning o‘qishga qiziqish masalasini zamonaviy tadqiqotlardagi tahlili..... 73
- Azimova Kamola Karimovna.** Buxoroda jadidchilik g‘oyalarining vujudga kelishi va ta‘lim-tarbiyadagi o‘zgarishlar..... 79
- To‘rayeva Gulchirov Sheraliyevna.** Bo‘lajak muhandislarning texnologik kompetentligini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishning pedagogik asoslari ..... 82
- Karimova Gulshan Ravshanovna.** Ona tili darslarida keys-stadi metodini qo‘llashning ahamiyati..... 88
- Abdullayeva Feruza Nurillayevna.** O‘qish savodxonligi darslarida didaktik o‘yinlar vositasida badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirish ..... 92
- Hasanova Gulnoz Qosimovna.** Ta‘lim sifatini baholashning didaktik vositalari..... 96
- Nigmatova Mavjuda Maxmudovna.** Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida steam ta‘limini joriy etish yo‘llari ..... 100
- Nabiyeva Mohinur Zokirjon qizi.** Fe‘l turkumiga xos so‘zlarning uslubiy xususiyatlarini o‘rgatishning nazariy asoslari ..... 105
- Muzaffarova Nurjona Najmiddinovna.** Musiqa to‘garak mashg‘ulotlarini yoshlar ma‘naviyatiga ta‘siri ..... 109
- Raxmonova Hojibuv Rizojonovna.** O‘quvchilarni xalq qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalash ..... 112
- Abdullayeva Feruza Nurillayevna, Iskandarova Shahribonu Bahri qizi.** O‘qish savodxonligi darslarida fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish..... 116
- Муниса Наимова.** Чулпан и узбекская современная песня ..... 120

To'rayeva Guli Bahriddinova  
Buxoro davlat universiteti  
arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası  
o'qituvchisi  
[turayevaguli8@gmail.com](mailto:turayevaguli8@gmail.com)

**BUXORODA SUV TA'MINOTI, HOVUZLAR VA BOG'LAR JOYLASHUVI  
HAQIDAGI ILMIY-TARIXIY MULOHAZALAR  
(O.A.SUXAREVA TADQIQOTLARI ASOSIDA)**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O.A.Suxareva va L.I.Rempel tadqiqotlari asosida XIX asrning so'nggi choragida Buxoro shahri va atrofidagi hududlarda sug'orilish tizimi, suv ta'minoti, hovuzlar, ularning qurilish texnikasi tarixi va hukmdorlar tomonidan bunyod etilgan chorbog'lar haqida ma'lumot berilgan. Zarafshon daryosidan keluvchi Shahr-rud kanali va uning ichki tarmoqlari hisoblangan shohariqlar yo'nalishlari xaritalar asosida tahlil qilingan. Shirbudun, Chorbog'xosa va Moxi-xossa, Qumi Rabot kabi diqqatga sazovor bog'lar tarixi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro hovuzlari, Shahr-rud arig'i, suv ta'minoti, meshkoblar, sug'orish tizimi, Buxoro shahri bog'lari yozgi saroy va chorbog'lar, Shirbudun saroyi.

**НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О РАСПОЛОЖЕНИИ  
ИСТОЧНИКОВ ВОДОСНАБЖЕНИЯ, ПРУДОВ И САДОВ В БУХАРЕ В  
ИССЛЕДОВАНИИ О.А.СУХАРЕВОЙ**

**Аннотация.** В этой статье О.А.Сухарева и Л.И. Ремпель, основываясь на исследованиях, описали ирригационную систему, водоснабжение, пруды, историю их строительства, а также садов, построенные правителями в городе и окрестностях Бухары в последней четверти XIX века. Направления канала Шахр-Руд, который берет начало от реки Зарафшан, и направления канав, рассчитанные по его внутренним сетям, были проанализированы на основе карт. Освещена история таких известных садов, как Ширбудун, Чорбагхоса, Мохи-хосса и Куми Работ.

**Ключевые слова:** Бухарские пруды, Шахр-руд, водоснабжение, сооружения, ирригационная система, Бухарских городских садов, летние дворцы и скверы, дворец Ширбудун.

**SCIENTIFIC AND HISTORICAL REFLECTIONS ON THE LOCATION OF WATER  
SUPPLY SOURCES, PONDS AND GARDENS IN BUKHARA IN O.A.SUKHAREVA'S  
RESEARCH**

**Annotation.** In this article, O.A. Sukhareva and L.I. Rempel, based on their research, described the irrigation system, water supply, ponds, the history of their construction, as well as gardens built by rulers in the city and environs of Bukhara in the last quarter of the 19th century. The directions of the Shahr Rud canal, which originates from the Zarafshan River, and the directions of the canals calculated from its internal networks were analyzed based on the maps. The history of such famous gardens as Shirbudun, Chorbaghosa, Mokhi-khossa and Kumi Rabot is covered.

**Keywords:** Bukhara ponds, Shahr-rud, water supply, facilities, irrigation system, Bukhara city gardens, summer palaces and squares, Shirbudun Palace.



**Kirish.** Buxoro — asrlar mobaynida Sharqning ma'rifat va diniy markazi sifatida dunyoga mashhur bo'lgan qadimiy shahardir. O'tmishda savdo va madaniyat jihatidan u Turon - Turkistonning Balx, Hirot, Marv, Samarqand, Termiz, Nasaf (Karshi), Choch-Shosh (Toshkent) va Xorazm (Xiva) singari mashhur shaharlari orasida munosib o'rin egallagan. O'rta asrlarda Buxoro Movarounnahrning yirik savdo, hunarmandchilik va ma'muriy markazi bo'lgan. O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarini Hindiston va Xitoy bilan bog'lovchi qadimiy xalqaro savdo yo'li aynan shu shahar orqali o'tgan[1;18b.]. Shu bois, Buxoro tarixini o'rganish tarixchi-mutaxassislarning asosiy ilmiy maqsadlaridan hisoblangan.

**Asosiy qism.** Buxoro shahrining tabiiy –geografik joylashuvi, suv ta'minoti va irrigatsion tizimi, hovuzlari, shahar atrofidagi xushmanzara bog'lar haqidagi tarixiy ma'lumotlar rus elchi-sayyohlarining esdaliklarida va tarixiy topografik xaritalarda, shuningdek, tarixchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida uchraydi. 1841-1842-yillarda Buxoroda bo'lgan Butenev missiyasi a'zolaridan N.Xanikovning esdaliklarida shahar tabiiy-iqlim sharoiti, geografik joylashuvi, suv ta'minoti va hovuzlari haqida ham malumot berilgan. Shahar Shoxrud arig'idan suv ichadi, uning uzunligi 4 km atrofida. Aholining doimiy suv bilan ta'minlanishi uchun 83 ta hovuz qazilgan. Asosiy yirik hovuzlar soni 32 deb ma'lumot beriladi N.Xanikovning "Описание Бухарского ханства" asarida[11; 80-81b.].

N.F. Sitnyakovskiyning "Заметки о Бухарской части дороги Зеравшана", I.T.Poslavskiyning "Бухара. Описание города и ханства, - сборник географических, топографических и исторических материалов на Азии" kabi ilmiy asarlarda ham Buxoro shahrining irrigatsion tizimi haqida ma'lumotlar berilgan[5]. O.A.Suxarevaning "Бухара XIX - начала XX вв: позднефеодальный город и его население" nomli ilmiy monografiyasida ham Buxoro shahri hovuzlari va Zarafshon daryosidan qazib keltirilgan Shahr-rud kanali haqida batafsil ma'lumot berilgan [8; 23-25b.].

1940-yilda O'rta Osiyo Davlat universitetida M.S.Andreev boshchiligida Buxoro ilmiy-etnografik ekspeditsiyasi tashkil qilindi. Ekspeditsiya tarkibi M.S.Yusupova, N.V.Rusinov, O.D.Chexovich, O.A.Suxareva va L.I.Rempel kabi tarixchi –olimlardan iborat edi.

Buxoro tarixini katta qiziqish bilan o'rgangan L.I.Rempelning "Далёкое и близкое, Бухарские записи" (1981) nomli kitobida Shahr-rud kanali haqida ma'lumot beriladi. Shahr-rud kanali Shirbudun saroyidan boshlanib, Mozori sharif darvozasi bo'ylab shahar ichkarisiga kirib boradi. Shahar hududida Shahr-rud hovuzlarga quyiladi, suv taqsimoti bilan shaharda rais o'rinbosari xalfa shug'ullanadi, deb ma'lumot beradi L.I.Rempel. 1928-1930-yillarda Buxoroda faoliyat olib borgan Tropik kasalliklar institutining statistik ma'lumotlari asosida Buxoro shahri hovuzlarining joylashuv xaritasini ham tayyorlaydi[6; 143-150b.]. Unda 114 ta hovuz nomi va joylashuv o'rni ko'rsatiladi. L.I.Rempel Buxoro shahri atrofidagi yozgi saroylar va chorbog'lar xaritasini ham tuzgan. Bu xaritada nufuzli amaldorlarga tegishli bog'lar va sug'orilish tizimi, ariqlar haqida berilgan ma'lumotlarning ilmiy ahamiyati yuqori hisoblanadi. Quyida L.I.Rempelning XX asr boshlarida Buxoro shahri hovuzlari va magistral ariqlari yo'nalishlari asosida tuzilgan xarita berildi.

A.R.Muxammadjonovning 1972-yilda nashr qilingan "Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi" kitobi ham quyi Zarafshon vohasining qadimgi davrdan XX asrgacha bo'lgan sug'orish va sug'orilish texnikasi, Buxoro va Samarqand hududlaridagi sug'oriladigan yerlar o'rnini aniqlashtirish imkonini beradi [3].

Tarixchi – sharqshunos, etnograf olimi, serqirra ilm sohibasi Olga Aleksandrovna Suxareva ilmiy tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri bu shaharlar tarixi, topografiyasi va xaritasini o'rganish hisoblanadi. 1947-1960-yillarda Buxoroga ilmiy safarlar uyushtirgan O.A.Suxareva Samarqand, Buxoro, Qarshi va Shahrisabz shaharlarining topografik tarixi va aholisi etnik xususiyatlarini chuqur o'rgandi. O.A.Suxarevaning bu davrdagi tadqiqotlari O'rta Osiyoning so'nggi o'rta asrlar shaharlari tarixi, tabiiy-geografik joylashuvi, irrigatsiya tizimi, tarixiy topografiyasi va etnik tarixi, shuningdek, hunarmandchilik turlari bilan bog'liq edi [4; 94-114b.]. O.A.Suxarevaning "Бухара XIX - начала XX вв: позднефеодальный город и его население"

nomli monografiyasida Buxoro shahri hududi va tarixiy topografiyasi, geografik joylashuvi hamda tabiati, irrigatsiya tizimi va hovuzlar, bozorlar, karvonsaroylar, tarixiy joylar, qabristonlar, aholi guzarlari, shaharning qurilish rejasi haqida ma'lumot berilgan.

1963-yilda olim Moskvada Rossiya Fanlar akademiyasining N.N.Mikluxo-Maklay nomidagi etnologiya va antropologiya institutida "Бухара XIX - начала XX вв : позднефеодальный город и его население" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi[10]. O.A.Suxarevaning "К истории городов Бухарского ханства. Историко-этнографические очерки"(1958) (1958) va "Бухара XIX — начала XX в. (позднефеодальный город и его население)" (1966) monografiyalarida Buxoro shahrining tarixiy topografiyasi, tabiiy joylashuvi, sug'orilish tizimi va shaharning suv ta'minoti, hovuzlari, yerosti suvlari va shahar atrofidagi bog'lar haqida ma'lumotlar berilgan.

I.T.Xamraevning "Buxoro hovuzlari" maqolasi [ „Buxoroning jahon madaniyatidagi o'rni" mavzusida Respublika miqyosida onlayn ilmiy-amaliy anjumani to'plami, Buxoro, 2020. -464-bet.] O.A.Suxarevaning "Бухара XIX - начала XX вв : позднефеодальный город и его население" nomli ilmiy monografiyasining birinchi bobida keltirilgan Buxoro shahri hovuzlari va Shahr-rud kanali haqidagi ilmiy ma'lumotlar asosida yozilgan.

O.A.Suxareva ma'lumotlariga ko'ra, har tomondan cho'l bilan qurshab olingan Buxoro shahriga va uning atrofidagi qishloqlarga suv Zarafshon daryosidan oqib keluvchi Shahr-rud deb ataluvchi maxsus kanal orqali keltirilgan. Buxoro atrofidagi unumdor yerlar Shahr-rud kanalidan olingan bir necha ariq tarmoqlari orqali sug'orilgan. Bunday ariqlar Buxoroning shimoliy hududlarida juda ham ko'p bo'lgan. Bu hududlardan Jizmandu, Navmiton, Talipoch, Xonabod va boshqa ariqlar oqib o'tgan. Bu ariqlar sharqdan g'arbga qarab oqib, bir necha parallel oqimlar yo'nalishida bog'lar va yerlarni sug'organ, va shaharning g'arb tomonidan aylanib, g'arbiy hamda janubiy g'arbiy hududlarini ham sug'organ[9;25b]. I.T.Xamrayevning tahlilicha, janubiy-sharqiy tomondan parallel Safedmuy (o'rta asrda Safedmun), Laylak, Foshun, Zarmanoq, Bog'dosh kanallari ham mavjud bo'lgan[13]. Shaharning suv ta'minoti asosan Shox-rud yoki Rudi-shox kanali orqali amalga oshirilgan – "Shahar daryosi" (Qadimda Rudi-zar – "Oltin daryo") deb yuritilgan. Bu kanal Buxorodan bir necha kilometr masofa uzoqlikdagi Zarafshon daryosidan olib kelingan, shaharga tutashgan joylarning yuqorisidan sun'iy o'yib hosil qilingan o'zandan oqib o'tgan. Juda kam miqdordagi suv shahardan tashqarida joylashgan ariqlardan (Zaxkash, Navmitan) ham shaharga oqib kirgan: bu suv shahar devorining ichiga o'rnatilgan quvurlar orqali oqib kirgan[9;27b].

O.A.Suxareva Shoxrud kanalining shaharga kirish yo'nalishi Mozor darvozasining janubrog'ida bo'lgan, deb ta'kidlaydi. U o'zida shaharga odam kirmasligi uchun panjara bilan mahkamlangan katta tuynukni kasb etgan. Kanal shaharni teng ikkiga bo'lib, Talipoch darvozasi yonidan shahar tashqarisiga chiqqan. Kanalning qariyb barcha suvi shaharda sarflanar edi va shahardan chiqishida kichkinagina ariqcha bo'lib qolar edi. Kanalning o'zani yetarlicha chuqur bo'lgan. Shaharning savdo markazi (Toqi sarrafon va uning sharqiy hamda g'arbiy tomoni) dan oqib o'tishida uning usti berkitilgan bo'lib yerning ostidan (tazar) oqib o'tgan. Bu erda joylashgan karvon saroy, madrasa va uylardan kanaldan suv olish uchun yer osti yo'llari (tunnellar) dan foydalanilgan.

I.T.Xamraevning "Buxoro hovuzlari" maqolasida Shoxruddan shahar hududlariga suv etkazib berish uchun juda ko'p ariqlar (juv) o'tkazilganligi aytiladi. Tropik kasalliklar institutining 1925-1926-yillarda Buxoroda o'tkazgan tadqiqotlari bo'yicha Shoxrud kanalidan 220 ta shahobcha o'tkazilgan[9;27b]. Zarafshon daryosidan suv oladigan barcha ariqlardan shaharga suv davriy (vaqti-vaqti bilan) yuborilar edi. Aslida suv oyida ikki marta yuborilar edi. Zarafshon daryosidagi suvning mavjudligiga qarab, suvning yuborilishi va ariqlarda oqish davomiyligi oydan oyga o'zgarib turgan. Masalan, Buxoroning eng yirik hovuzlaridan biri bo'lgan Hovuzinavga suv (suv yuborish jadvali bo'yicha, 1925-26-yillar, hali eski suvni taqsimlash tartibi mavjud bo'lgan) oyiga ikki marta: oyning birinchi yarmining oxirida (10-13 sanalarda) va oyning ikkinchi yarmining oxirida (27-30 sanalarda) hamda suvning hovuzga oqib kelishi davomiyligi har doim 3

10 kun davom etgan. Har yili ikki oyda (yanvarda va mayda) suv umuman oqmagani, deb ma'lumot beriladi.

Ichimlik suvini katta uzilishlar bilan olaturib, buxoroliklar suvni maxsus hovuzlarda saqlash tizimini ishlab chiqqanlar. Shaharning barcha mahallalarida hovuzlar bo'lgan, hattoki balandlikda joylashgan shahriston hududida ham.

Har bir hovuzdan uning yaqinida joylashgan barcha mahalla aholisi foydalangan. Buxoroda 100 ga yaqin hovuz bo'lgan. Hovuzlarning joylashgan joyi rejasi mavjud va Tropik kasalliklar institutining hisobotida 100 ga yaqin hovuzlar mavjudligi qayd etilgan.

O.A.Suxarevaning ma'lumotlariga ko'ra, Parfyonov-Fenin xaritasida 80 ta hovuz qayd etilgan. Feninning rejasi asosida tuzilgan eksplikatsiya bo'yicha quyidagi hovuzlar ro'yxati keltiriladi: 1) Rangrez, 2) Qozi Nuriddin, 3) Xalifa Xuseyn, 4) Pochchaxo'ja, 5) Bulg'or, 6) Rashid, 7) Shayxshox, 8) Qutluq, 9) G'aribiya, 10) Mirakon, 11) SHomalik, 12) Tolib-Xo'ja, 13) Hovuzi-nav, 14) SHahri-nav, 15) Qozi, 16) Jilov-xona, 17) Mirdustim, 18) Qofilon, 19) Tursunxo'ja, 20) Xo'ja-Tuyg'un, 21) Mirzo Botir, 22) SHoarab, 23) Mirakon, 24) Mirjon-keldi, 25) Boqixon naqib, 26) Axtachi, 27) Farmonqul-bek, 28) Morqush, 29) Kosagaron, 30) Garmak, 31) Sufiyon, 32) Saraxsiyon, 33) G'oziyon, 34) Gavkushon, 35) Muxammad-yor-otaliq, 36) Arbob, 37) Xo'ja-Aspgardon, 38) Jilav-xona, 39) Murdashuyon, 40) Tabibon, 41) SHisha-xona, 42) Bodom, 43) Nodir-qurchi, 44) Sarvono, 45) Qulmaxmadxoji, 46) Zindafil Axmadi Jomiy, 47) Axmad-dorg'o, 48) Oq machit, 49) Xazrat-Ayub, 50) Qozi-Fayzi, 51) SHer-Muxammad-juvozkan, 52) Nazarcha, 53) Buyrobof, 54) Olim-xo'ja, 55) SHukurbiy-kussoch, 57) Mirzo-G'ofur, 58) Qozi-kalon, 59) Xo'ja Zayniddin, 60) Lesak, 61) Devonbegi, 62) CHo'pboz, 63) CHorbakkoli, 64) Koshuki, 65) Xo'ja-Nurobod, 66) Xalol, 67) Murdor, 68) Oybinok, 69) Dilkushoi darun, 70) Xo'ja-Xasan, 71) Xo'ja-Tabband, 72) Ko'chabog', 73) Kalobod, 74) Jafarxo'ja, 75) Mullo Ashur, 76) SHarifboybindi, 77) Karokamol, 78) Jo'yi-chappa, 79) Mir-Taxuridevon, 80) CHordora. Hovuzlarning o'lchami, xuddi shunday obodonchiligi turlicha bo'lgan. Buxoroning barcha hovuzlarining suv sig'imi 82 580 kub metr ga etgan, ya'ni 6 06 376 chelak [9:28b].

Shaharliklar uchun hovuzlarni barpo qilish ahamiyatli voqelik bo'lgan. O'rta Osiyolik quruvchilar hovuzning tagidan uning qirg'ogigacha chiqish uchun zinapoya shaklida tarashlab yasalgan toshlar bilan qoplash texnikasini ishlab chiqqanlar. Agar hovuzlar toshlar bilan qoplanmaganda ulardagi suv tez yerga singardi va hovuz qurib qolar edi. Bu ishlarni tashkil qilish va katta harajatlar sarf qilishni o'z zimmasiga g'azna, ko'pincha o'z nomini abadiy qoldirishga intiluvchi mahallaning taniqli boy odamlari olganlar. Ba'zida mahalla aholisi yoki qo'shni mahalla yashovchilari bilan hashar yo'li orqali qurilgan. Qo'sh madrasa mahallasi tub joyli odamlarining ma'lumotiga qaraganda Mir-Do'stim hovuzining tosh bilan qoplamasi taniqli va obro'li mahalla yashovchisi Qozi Badriddinning urinishi tufayli g'azna hisobidan bajarilgan. Rashid hovuzi Buxoroda yashovchi va savdo qiluvchi afg'on savdogari hisobidan marmar bilan qoplangan; Shayx-shox hovuzini tosh bilan G'iyos-oqsoqol degan boy o'z hisobidan qoplagan; Qutluq hovuzini qorakul terilari bilan savdo qiluvchi Buxoroda, hattoki Rossiyada ham taniqli Jo'rabek Arabov degan boy obodonlashtirgan. Shisha-xona mahallasida joylashgan Bodom hovuzi mahalla aholisi yoki qo'shni mahalla aholisi bilan birgalikda qurilgan [9:29b].

Hovuzlarni qurish texnikasi bilan bir qatorda Buxoroda shaharliklarga maxsus idishlarda suv olib kelib berish tizimi ham yo'lga qo'yilgan: buni maxsus suv tashuvchilar bajargan. Buxoro amirligining devonxonasi, madrasa, karvonsaroy, bozorlar, choyxona, boy xonadonlarini meshkoblar hovuz suvi bilan ta'minlab turganlar. Masalan birgina Devonbegi hovuzidan 80 ta meshkobchi suv tashigan [2;13-17b].

Buxoroda hovuzlardan tashqari suv manbai hisoblangan quduqlar ham mavjud bo'lgan. Ular bir xil emas: ularning ko'pchiligi iste'mol qilishga yaroqsiz achchiq-sho'r suvni bergan. Boshqalarida suvning ta'mi ancha yaxshi bo'lgan. Ammo quduq suvlari hovuz suvlariga nisbatan buxoroliklar uchun ancha ta'msiz hisoblangan. Shu munosabat bilan uyida chuchuk suvli qudug'i bo'lgan oilalar quduq suvi bilan bir qatorda hovuz suvlaridan ham foydalanganlar. Tropik kasalliklar institutining ma'lumotlari bo'yicha Buxoroda 309 ta quduq bo'lgan, ulardan suvi

iste'mol qilishga yaroqlisi – 146 ta. Ayniqsa ko'p quduq yahudiylar yashaydigan mahallada 123 ta quduq bo'lgan [9:30b].

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoroda 100 tacha, uning atrofida 250 ga yaqin hovuz bo'lgan. Hovuzi Devonbegi, Hovuzi Rashid, Hovuzi Xo'ja Zayniddin, Labi hovuz va Bolo hovuzlari Buxoroda mashhur bo'lgan. Shahar hovuzlarining atrofi marmar yoki yo'nilgan toshlar bilan ishlangan. Eshoni Imlo va Xalifa Xudaydod hovuzlari ustiga sardoba qurilgan [2;13-17b].

Qadimgi Buxoroning suv ta'minoti tizimi irrigatsion tarmoqlarga (ariqlarga) asoslangan bo'lib, faqatgina eski shahriston qismi (Ark va uning orqa tomoni) ariqlardan sug'orilmagan. Shahristonning shaharga nisbatan balandroq bo'lganligi sababli Shoxrud (qadimda Zarirud) arig'ining suvi shahristonga chiqmagan. Shu sababli shahristonda o'simliklar va daraxtlar mavjud bo'lmagan. Shahriston aholisi esa quduqlardan foydalanishgan. Faqatgina shahristonning shimoliy qismida joylashgan Qozi-kalon hovuzi va shahristonning sharqiy qismidagi Xoja-kalon hovuzlari bundan mustasno bo'lgan. Ammo, bu hovuzlarning qurilishi uchun yer ostidan ariq o'tkazilib, hovuzni ko'cha sadhidan 8-10 metr chuqurroq qazishga to'g'ri kelgan.

Shahar atrofini sug'orishni mirob nazorat qilgan. Shahar atrofini sug'orishda Laylak, Foshin, Bog'idasht, Zarminoq, Gulobiyon, Qalandarxona, Amirobod, Jonmurod va shu kabi o'ndan ziyod ariqlardan foydalanilgan. Ariqdagi suvlar shahar ostonasiga etib kelgandan keyin ularni endi mirob emas xalfa, rais o'rinbosari boshqargan. U rais kabi shahar obodonchiligini, bozorlarni, ustaxonalarni kuzatgan va suv ta'minotini nazorat qilgan [6; 143-150b.]. Buxoro shahrini ariqlar sug'orish tizimi ikki tomonlama shimoli-sharqiy va janubi-g'arbiy tomondan qamrab olgan. Bog'lar ham aynan suv yo'nalishi bo'ylab barpo qilingan. O'ndan ortiq ariqlar shaharning shimolidan janubiy va g'arbiy tomonlariga qarab yo'naltirilgan. Bular Amirobod, Navxas, Navxasi bolo, Rugcha, Xonobod, Chorbog'i Talipoch, Yurchi, Jo'yi Qozi Muytob, O'tror va boshqalar. Sug'orilish tizimining boshlanishi Toshko'prikdan boshlangan Shoxrud arig'iga borib taqalgan. Buxoroning janubi-g'arbiy qismida Qalandarxona bo'ylab –Gulebiyon, Zarmanoq, Bog'i dasht, Safedi Muy, Porakan ariqlari oqib o'tgan. Shirbudun hududini suv bilan ta'minlovchi beshta ariqlar tizimi mavjud bo'lgan [7; 143-150b.].


Amir va saroy amaldorlariga tegishli asosiy bog'lar shahardan tashqarida bo'lgan. Shirbudun, Chorbog'xosa va Qumi Rabot bog'lari shular jumlasidan.

Chorbog'xosa saroyidagi bog' amir Nasrulloxon (1827-1860) davrida O'g'lon darvozasi yaqinida shaharning shimoli-g'arbiy tomonida barpo qilingan. Muzaffarxon davrida (1860-1885) Buxorodan to'rt kilometr Sharqda Shirbudun saroyi va bog'i bunyod etilgan. Shirbudun saroyi va bog'i hashamdor bo'lgan. Sitorai Moxi-xossa saroyi va bog'i amir Abdulahadxon davrida qurilgan. Sitorai Moxi-xossa inshooti Buxoro shahridan to'rt kilometr shimolda joylashgan. Saroylar va bog'lar hukmdorlarning yozgi rezidensiyasi hisoblangan. Buxoro shahrida daraxtlar kamligi uchun yoz faslida shahar issiq bo'lgan. Yana bir bog' va saroy -Chorbog'i Gul amir Olimxonning sartaroshi Xoja Nismatulloga tegishli bo'lgan. Shahar atrofidagi asosiy katta va xushmanzara bog'lar amirning amaldorlariga berilgan. Ubaydullo Xo'ja Jo'rabek Arabon, Komilboy Nosirboy, Qori Ahmad, Xoja Olimboy, Qushbegi Ostonaqulbiy, Qozikalon Sharifjon singari yirik amaldorlarning ham bog'lari bo'lgan [6; 143-150b.]. Bir qancha kichik bog'lar Shergiron, Talipoch, Jo'ybor darvozalari bo'ylab barpo etilgan, bu bog'lar kichik toifadagi amaldorlarga tegishli edi.

O.A.Suxareva Buxoro shahrining Shimoli-sharqiy, g'arbiy va Janubi-g'arbiy qismida kichik bog'lar bo'lganligini qayd etadi. Sharqiy kvartallarda Dilkushoyi darun, Ko'chayi-Bog', Jafarxo'ja guzarlarida kichik bog'lar bo'lib, sabzavotlar, donli ekinlar va chorva uchun beda ekilardi. Buxoro shahrining g'arbiy qismida zodagonlarning bir nechta chorbog'lari-katta bog'lari bor edi. Amir haramiga tegishli Boturxon bog'i, Barotbek bog'i va Chorbog'i Boqixon bog'lari haqida XVIII asrga tegishli hujjatlarda ma'lumotlar uchraydi. Shergiron darvozasiga olib boruvchi yo'lning shimolida boy savdogarlarga tegishli kichikroq bog'lar bo'lgan. Shaharning janubiy qismida joylashgan Kunji qal'a(qal'aning burchagi)ning janubi-g'arbiy tomonida uzumzorlar, mevali daraxtlar va sabzavot ekiladigan unumdor yerlar bo'lgan. O.A.Suxareva



- 12 Buxoro shahri tashqi devori to'rt asr oldin kengaytirilgan vaqtda qishloqlar ko'inishini beruvchi bu bog'lar shahar hududiga kiritilganligini ta'kidlaydi[9:28b]. Shahriston tomonga borgan sari aholi yashashi zichlashib, daraxtlar deyarli bo'lmaganligini ko'rish mumkin deydi, tarixchi-etnograf olimi. Quyidagi xaritada Buxoro amirlari va saroy amaldorlariga tegishli bog'lar va ularni suv ta'minotida muhim o'rin tutgan ariqlar yo'nalishlari aks ettirilgan.



Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. -Ташкент, 1981. -С. 144

**Xulosa** qilib shuni aytish mumkinki, Zarafshon daryosidan keluvchi Shoxrud kanali Buxoro shahrini qadimdan suv bilan ta'minlab kelgan. O'rta asrlarda Buxoro shahri va atrofidagi hududlar Shoxrud kanalining tarmoqlari hisoblangan ariqlar orqali sug'orilgan. Aholi ichimlik suv ta'minotida 100 dan ortiq hovuzlardan foydalanilgan. A.Suxareva shahar tarixiy topografiyasini tadqiq qilish jarayonida Shoxrud kanalining irrigatsion tizimi va hovuzlar joylashuvi, ark, shahriston qismlarida suv ta'minoti, miroblik xizmati haqida batafsil ma'lumot bergan. Shaharda mo'tadil ob-havoni saqlash maqsadida bog'lar barpo qilinganligi, shuningdek, shahar atrofida hukmdorlarning yozgi saroylari va saroy ayonlarining bog'lar(chorbog'i) haqidagi ma'lumotlar ahamiyatlidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бухоро Шарқ дурдонаси .-Т.:Шарқ нашриёти ,1997.Б-18
2. Bobojonova F.H.Buxoro me'moriy obidalari tarixi.Oquv-metodik qo'llanma.-Buxoro,2022.

3. Мухаммаджонов.А.Р. Куйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи.-Т,1972.
4. Наумова О. Б. Ольга Александровна Сухарева (К 100- летию со дня рождения) // Этнограф, обозрение (далее - ЭО). 2003. № 6 .С. 94-114.
5. Ситняковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части дороги Зеравшана, - «Известия Туркестанского отделения РГО», т. I, 1909
6. Пославский И.Т. Бухара. Описание города и ханства, - сборник географических, топографических и исторических материалов на Азии», Ташкент, 1909, т. XVII, стр. 55, 56, 59-62.
7. Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. -Ташкент, 1981. -С. 143-150.
8. Сухарева, О.А. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки) / О.А. Сухарева. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1958. – С.140.
9. Сухарева, О.А. Бухара XIX - начала XX в. (позднефеодальный город и его население) / О.А. Сухарева. – М.: Наука, 1966. – 328 с.
10. Сухарева О. А. Бухара. XIX - начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). М., 1966. С. 19, 21; *Она же*. Позднефеодальный город. Бухара конца XIX - начала XX вв. Автореф. дис. ...д.и.н. Ташкент, 1962. С. 7; *Она же*. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). Ташкент. 1958. С. 12.
11. Тўраева Г.Б. О.А.Сухареванинг Бухоро мавзусидаги илмий монографиялари тахлили// Бухоро давлат университети Илмий Ахбороти. – Бухоро, 2024. №11. – В.163-169.
12. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства.- СПб, 1843.
13. Хамраев И. Бухоро ҳовузлари. “Бухоронинг жаҳон маданиятидаги ўрни” мавзусида Республика миқёсида онлайн илмий-амалий анжумани тўплами, Бухоро, 2020 — 464-бет.